

№	Yo'nalish kodi	Ta'lim yo'nalishi nomi	Kunuzgi	Sirtqi	Egallaydigan kasbi
37	60811300	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulotlar turlari bo'yicha)		+	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologi

**Yo'nalish tavsifi**

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi bakalavriyat talim yo'nalishi - fan va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasi yo'nalishi bo'lib, mavjud resurslaridan samarali foydalanish darajasini oshirish maqsadida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va dastlabki ishlash jarayonlarini optimallashtirish; tayyorlangan, saqlangan va qayta ishlangan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sifatini oshirish, kasbiy faoliyatida texnik vositalardan oqilona foydalanish usul va uslublari yig'indisini o'z ichiga oladi. Shuningdek, ta'lim yo'nalishi - qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va dastlabki ishlash bo'yicha servis xizmati ko'rsatish, extension markazlarida fermer va dehqon xo'jaliklari vakillariga sohaga oid yangi bilimlarni o'qitish, saqlash omborlari va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini loyihalash, dastlabki ishlangan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni samarali va resurs tejamkor faoliyatni tashkil etish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini dastlabki ishlashga tegishli texnologiya va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash kabi faoliyatlar bilan shug'ullanish imkonini beradi